



TARBIYA VA MILLIY TARBIYA TUSHUNCHALARINING MAZMUN-MOHİYATI

Vahobov Shahbozbek Bobomurod o'g'li

Qo'qon davlat pedagogika insitutining tarix fakulteti 2-bosqich talabasi

@shahboz _ vahobov. [90]858-64-04

Anonatsiya; Ushbu mavzu dunyo xalqlari uchun eng kerakli bo'lgan va dolzarb mavzudir chunki hozirgi kunga kelib millat tarbiyasi qolaversa milliy tarbiya yemirilib bormoqda. Shuning uchun biz hozirgi kunda milliy tarbiya katta e'tibor qaratishimiz bu muammolarni tahlil qilishimiz zarur buning uchun dastavval bu tushunchalarning ma'no va mazmunini anglashimiz zarur.

Annotation; This topic is the most necessary and urgent topic for the peoples of the world, because until now, national education is being eroded. Therefore, we need to pay a lot of attention to national education and analyze these problems. and we need to understand its content.

Аннотация; Эта тема является самой нужной и актуальной темой для народов мира, потому что до сих пор национальное образование размывается. Поэтому нам необходимо уделять большое внимание национальному образованию и анализировать эти проблемы. И нам нужно понять его содержание.

Kalit so'zlar; Tarbiya, milliy tarbiya, pedagogiya, millat, mentalitet, ta'lim, tarbiya metodlari, odob – axloq, millat, imunitet, milliy g'urur, tarixiy ong, xulq-atvor, madaniyat.

Key words; Education, national education, pedagogy, nation, mentality, education, methods of education, manners - morality, nation, immunity, national pride, historical consciousness, behavior, culture.

Ключевые слова; Воспитание, национальное образование, педагогика, нация, менталитет, воспитание, методы воспитания, нравы - мораль, нация, иммунитет, национальная гордость, историческое сознание, поведение, культура.

Malumki har qanday masalani tahlil qilishdan avval bu mavzuni mohiyatini ochib beruvchi tushunchalarni tahlil qilish zarurdir.

Tarbiya

Tarbiya — arabcha so'zdan olingan bo'lib, parvarish qilmoq, ta'lim



bermoq, o'rganish, odob o'rgatish, mehribonlik ko'rsatish, himoya qilish degan ma'nolarni bildiradi.

Pedagogik adabiyotlarda "Tarbiya" atamasi keng va tor ma'nolarda ishlatiladi. Keng ma'noda tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig'indisini anglatadi. Bunday tushunishda tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g'oyalari, adabiyot, san'at, kino, radio, televideniye va boshqalarni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma'nodagi tarbiya tushunchasi ichiga ta'lim va ma'lumot olish ham kiradi.

Tor ma'noda tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy qiyofasi, estetik didining o'stirilishiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Buni oila, tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari amalga oshiradi. Ta'lim va ma'lumot olish tor ma'nodagi tarbiya ichiga kirmaydi. Lekin har qanday tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Chunki ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning nafaqat bilimi ko'payibgina qolmay, balki ahloqiy-ma'naviy sifatlarining qaror topishi ham tezlashadi. Darhaqiqat tarbiya bir vaqtning o'zida ham amaliy ham nazariy mehnatni talab etadi bu haqda Farobiy o'z asarlarida aytib o'tadi. Tarbiya jarayoniga qadimgi yunon faylasufi Plutarx qadimgi Sparta davlatining tarbiyasini misol tariqasida keltiradi; o'qish va yozish -bolalarga ularning faqat eng zarurlari o'rgatilar edi, tarbiyaning qolgan qismi esa bitta maqsadni, yani so'zsiz itoat etishni, chidamli bo'lish va yengish ilmini o'rgatish ko'zda tutiladi. Haqiqatdan ham tarbiya bu millat taqdirini belgilovchi va farovon kelajakni taminlovchi yoshlarni to'g'ri yo'lga yo'naltiruvchi va har qanday insonni komillikga yetaklovchi fazilatlar yig'indisidir.

Buyuk jadid bobomiz aytganidek Tarbiya bizlar uchun yo hayot- yo mamot, yo najot -yo halokat, yo saodat- falokat masalasidir degan fikrlarni ilgari surdi rostdan ham tarbiya taroqiyotning barcha sohalarining asosidir. Yuksak tarbiya ko'rgan yoshlar millat kelajagidir, bular mamlakatning ulug' bir poydevoridir shuning uchun buyuk jadidlarimiz yoshlar tarbiyasiga alohida etibor qaratdilar yaxshi talim va tarbiyaga jaholat botqog'idan olib chiqivchi najot sifatida qaradilar. Lekin hozirga kelib tarbiya masalasiga e'tibor suslasha boshladi va tarbiyadagi ayrim nuqsonlar ko'zga tashlana boshladi bu esa hamma sohani izdan chiqarishi mumkun shuning uchun bu masalaga o'z vaqtida yechim topish zarur.



Beruniy tarbiya sohasida izlanish olib bordi va uni metodlaridi o'z izlanishlari davomida ishlab chiqdi. Yani inson kamolotida uch narsa muhimdir bular; irsiyat , muhit va tarbiyaning o'rni naqadar muhimligini aniqladi va o'z tarbiya usulini yaratdi.

Milliy tarbiya

Milliy tarbiya bu har bir millatga tegishli bo'lgan ming yillik qadriyatlar asosida uzoq vaqt davomida shakillanib va takomillashib kelayotgan tarbiya tizimidir.

Millat – uzoq davom etgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va etnomadaniy jarayonda aniq hududiy til va o'zlikni anglash birligi asosida shakllangan xalq, etnik tarixning eng yuksak cho'qqisi, o'ziga xos madaniyat, ong va mentalited zaminida tarkib topgan ijtimoiy birlikshaklidir. Millat kishilarning jips tarixiy birligi, umumiqtisodiy, turmush, til, hudud birligi, madaniyat, ong, ruhiyat uyg'unligi va mushtarakligi demakdir. Milliy tarbiya millatga hosdir darhaqiqat Abu Nasr Farobiy e'tibor qaratgan odamlar orasidagi bog'lanishni vujudga keltiruvchi xulq-atvor va tarbiya aynan milliy tarbiya bo'lib u millatni birlashtiruvchi, unda yagona tabiat va mentalitetni hosil qiluvchi asosiy vosita deya takidlaydi.

Milliy tarbiya jarayonida tarixiy ong va xotir muhim ro'l o'ynaydi o'z tarixini bilish yoshlarda o'ziga bo'lgan ishonch va millatiga bo'lgan hurmati oshiradi shu jumlada shuni takidlash kerakki Birinchi prezidentimiz Islom Karimov shunday degan edi; Har bir yosh o'z xalqi tarixini chuqur bilsa va undan o'ziga xulosa chiqargan bo'lsa u odamni hech qachon o'z yolidan va maqsadidan adashtirib bo'lmaydi deya takidlaydi rostdan ha milliy tarbiyada tarixiy ongning o'rni benihoya kattadir.

Xulosa qilib aytganda yoshlarga tarbiya va milliy tarbiyani singdirish jarayonida o'ziga xos milliy g'ururni va chalg'ituvchi vositalarga bo'lgan imunitetni shakillantirish va tarbiyani zamon talablariga mos ravishda olib borish zarurdir. Zero eng buyuk meros bu – yaxshi tarbiyadir.

Foydalanilgan adabiyotlar;

- 1/O'zbekiston milliy endisiklopediyasi.
- 2/Otamurodov S. Yangi asr avlodi.
- 3/Abu Nasr Farobiy, Fozil odamlar shahri.
- 4/Abdulla Avloniy, Turkiy guliston yohud axloq.
- 5/Islom Karimov, Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch.